

## PROFILAKTIKA ISPEKTORINING JINSIY JINOYATLARNI BARVAQT OLDINI OLISH FAOLIYATIDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti*

**Murodov Azamat O‘tkirjon o‘g‘li**

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarning barvaqt oldini olish tushunchasi, profilaktika inspektorining jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, xuquqiy asoslari, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari, mavjud muammo va kamchiliklarni hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar, yoritilgan.*

**Annotation:** *The relevance of subject of this qualification study the concept of the crime of prevention inspector's activities implementation of the viktimologic crime of prevention of offenses against freedom, the current state of prevention and the crime of inspector's viktimological crime of prevention against sexual freedom. In addition, a number of preventive inspectors have trained in the practice analysis of the norms in the prevention of these offenses and procedural documents, as well as a number of existing problems and defi.*

Ilmiy maqolaning dolzarbligi. “Jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash – amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta‘minlashning asosiy kafolatidir”.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev:”Asosiy qonunimizda umume’tirof etilgan demokratik prinsiplar bilan birga, xalqimizning bebaho qadriyatlari va boy davlatchilik tajribasini ifodalash muhim edi. Aynan Birinchi Prezidentimizning sa‘y-harakatlari bilan Konstitutsiyamizda “Inson va uning qadr-qimmatini” degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi”-, deb takidlab fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mamlakatimizda doimo asosiy vazifa sifatida e’tirof etib kelinganligini ta’kidlab o‘tdi. Bugungi kunda islohotlar keng ko‘lamda davom ettirilib, xuquqbuzarlikning oqibatlarini emas. balki ularning barvaqt oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, xuquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish ustuvor vazifalar ekanligi belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi “Ichki Ishlar organlarining faoliyat samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli ximoya qilishni taminlashda ularning ma’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘irisida”gi PF-5005-sonli Farmonida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha ishlar asosan, sodir etilgan g‘ayriqonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashishdan iboratligi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha tizimli va samarali chora-tadbirlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi etirof etib o‘tildi va shu bilan birga ushbu kamchiliklarni bartaraf etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, ilmiy maqolaning dolzarbligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish, bevosita fuqarolarning huquq va erkinliklarini ximoya qilishga qaratilganligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini doimiy ravishda o'rganish, taxlil qilish va takomillashtirib borish zaruriyatining mavjudligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishning huquqiy asoslar yetarli emasligi, ularni sharhlash zaruratining mavjudligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodik qo'llanmalar etarli emasligi, hamda barcha profilaktika inspektorlari bunday metodik materiallar bilan bir xilda ta'minlanmaganligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatidagi mavjud ilg'or ish usullarini o'rganish va amaliyotga joriy etish extiyojining mavjudligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha axoli orasida targ'ibot-tashviqot ishlarining yetarli darajada olib borilmayotganligi;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini samarali tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va ularni bartaraf qilishga, ushbu faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu faoliyat bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish zaruratining mavjudligi.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish lozim:

- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini o'rganish;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishning huquqiy asoslarini o'rganish;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish jarayonida qo'llaniladigan usul va shakllarni o'rganish;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish;
- jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishga oid statistik ma'lumotlarni tahlil qilish.

Ta'kidlash joizki, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, jinoyatning sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini ilmiy jihatdan bilish jinoyatchilik profilaktikasining chora-tadbirlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega ekanligini aslo unutmaslik zarur. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasaning muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyati huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir.

Jabrlanuvchisiz jinoyat bo'lishi mumkin emas. Hech shubha yo'qki, har qanday jinoyat jabrlanuvchiga moddiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar etkazadi. Muayyan shaxs, kishilar jamoasi, jamiyat, davlat va hatto xalqaro huquq-tartibot organlari ham jinoyat qurboni bo'lishi mumkin.

Jinoyat qurbonlarining jinoyat sodir etilishiga aloqadorligi xususidagi fikrlar hozirgi kunda yangilik emas. Ushbu g'oya ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi yodgorliklarida o'z aksini topgan insonparvarlik, kechirimlilik, bag'rikenglik xalqimizga xos bo'lgan azaliy qadriyatlardir. Shu bois ham jinoyat sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchining o'zaro kelishuvi davlatchiligimiz asoslarida ham keng qo'llanilgan. Bunda jinoyat sodir etgan shaxs jabrdiydaga tovon to'lagani uchun jabr ko'rgan taraf uni kechirib, qozi (sud)dan aybdorni jazodan ozod qilishni talab etishga haqli bulgan.

“Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarning sabablarini o'rganishda jabrlanuvchi haqidagi ta'limot muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari jinoyatning sodir etilishida jabrlanuvchining tutgan o'rnini shuningdek uning xulq-atvori ushbu jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda jabrlanuvchi va huquqbuzar o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyatga egadir

Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlangan shaxslarni o'rganishda:

jinoyat qurboni va jinoyatchi o'rtasidagi munosabat hamda ularning o'zaro aloqasi;

jinoyatni sodir etishda sabab va shart-sharoitni yuzaga keltirish bilan bog'liq holda, jinoyat qurbonlarning shaxsi va o'zini tutishi;

muayyan hayotiy vaziyatlarda jabrlanuvchining o'zini tutushi oqibatida jinoyatning yuzaga kelishi;

jinoyat sodir etilganidan sung (ayniqsa, retsdiv jinoyatlarni urganishda) jabrlanuvchining shaxsi va uning uzini tutishi;

latent jinoyatchilikning yuzaga kelishida jabrlanuvchining shaxsi va xatti-harakatlaridagi uzaro bog'liqlik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zidan ravshanki, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlardan jabrlanganlarni o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad – jinoyat qurbonining ushbu jinoyatlarning yuzaga kelishida tutgan o'rni (roli) va ahamiyatini, jinoiy vaziyatning yuzaga kelishi va rivojlanishiga qo'shgan «hissasi»ni aniqlash va tadqiq etishdir. Buning uchun esa, jabrlanuvchining shaxsi haqida, shuningdek uning jinoyat sodir etilishidan oldingi xulq-atvori to'g'risida umumiy axborot olish zarur”.

Fohishabozlik uchun odam yollash kabi uyushgan jinoyatchilik bilan bog'liq muammo O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “odam savdosi va odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish” deb ifodalangan. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs jabrlanuvchilarni Konstitutsiyada va qonunlarda aks etgan huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga qarshilik qilib tajovuz qiladi. Bunday jinoyatchilar odamlarni jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'rlashga majbur qiladilar, ularni kuch bilan ushlab turadilar, jinsiy erkinlikka bo'lgan huquqlarini poymol etadilar. Shaxs xavfsizligi va sog'lom turmush tarziga bepisandlik bilan qaraladi, ish sharoitlari bilan ta'min etilmaydi. Achinarli tomoni shundaki, ular turli yo'llar bilan qo'llariga tushgan odam borki, hammasining ish haqlarini o'zlashtirib, mo'may daromad ortiradilar jabrlanuvchilarga nisbatan g'ayrinsoniy va

shafqatsiz munosabatda bo'ladilar, ularni majburiy mehnatga jalb etib ochiqdan ochiq ekspluatatsiya qiladilar va sotadilar.

Mazkur jinoyatning yana bir xavfli jihati shundaki, hozirgi davrda butun dunyoda, jumladan Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Malayziya, Bahrayn, Tailand, Xitoy, Isroil, hatto, okean ortidagi davlatlarda ham odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy uyushmalar yoki jinoiy guruhlarning jinoiy faoliyatini amalga oshirish uchun qulay yo'llar mavjud. Jinoiy uyushma va jinoiy guruhlar o'z oldiga aldash yo'li bilan yollangan, keyinchalik sotib yuborilgan va sotib olingan insonlarni shahvoniy xizmatlar ko'rsatishda, og'ir ishlab chiqarishlarda, qishloq xo'jaligida tekinga ishlatishga majbur qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish jarayonida avvalo, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, ularni barvaqt oldini olish maqsadga muvofiq.

Ammo, huquqbuzarliklar subyektlari tomonidan ushbu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va hisobini yuritish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etmay turib kerakli natijalarga erishib bo'lmaydi.

Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

birinchisi, huquqbuzarning shaxsi (ijtimoiy-demografik, ma'naviy-ruhiy va jinoiy-huquqiy va biofizilogik belgilari)ga;

ikkinchisi, huquqbuzarning tarbiyasi, oilasidagi muhit, ehtiyoji, manfaatlari, motivi, maqsadi, hayotda tanlagan yo'li;

uchinchisi, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt, joy, sharoit, sodir etilish usuli, vositasi;

to'rtinchisi, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyda huquqbuzarlikni oldini olish lozim bo'lgan subyektlarning faoliyati;

beshinchisi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining shaxsi (ijtimoiy-demografik, ma'naviy-ruhiy va jinoiy-huquqiy va biofizilogik belgisi), aybli yoki aybsiz viktimlik holati;

oltinchisi, huquqbuzar va jabrlanuvchi o'rtasidagi aloqalar (yaqin qarindosh, qarindosh, quda-anda, qo'shni, mahalladosh, hamkasb, sinfdosh, kursdosh, tanish, notanish kabilar) va munosabat (ziddiyatli, adovatlashgan kabilar).

Shuningdek jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga doir darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yetarli darajada bo'lmaganligi sababli quyi bo'g'inda xizmat qiluvchi profilaktika inspektorlari mazkur yo'nalishda yetarlicha bilim ko'nikmaga ega bo'lmay qolmoqda.

Huquqbuzarliklarning bugungi bosqichida, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hisobot berish tizimining yaratilishi, har haftaning payshanba kunlari «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» deb e'lon qilinishi, qolaversa, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat, hududiy va boshqa dasturlarning hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarning ishlab

chiqilishi jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda barcha subyektlarning hamkorlikda ishlash imkonini berdi.

Tadqiqotlar natijasida jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi usul va shakllarni qo'llanilishi uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz:

1). Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning jabrlanuvchisi bo'lib qolishga moyil shaxslarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular bilan muntazam viktimologik profilaktik choralarini amalga oshirish.

2). Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning jabrlanuvchilarini rehabilitatsiyasini amalga oshirish uchun alohida Markazlar tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish.

3). Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish bo'yicha namnaviy reja ishlab chiqish va tasdiqlash hamda amaliyotga joriy etish.

4). Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish jarayonida huquqni muhofaza qilish organlari, boshqa davlat organlari va jamoat tuzilmalarining hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish yuzasidan qo'shma buyruqlar ishlab chiqish.

5). Har bir huquqbuzarlik bo'yicha ularning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlarni to'liq holda yoritish va hisobini yuritishni nazarda tutuvchi elektron kartochoqlarni joriy etish orqali yagona markazlashtirilgan hisobga olish tizimi va uning elektron bazasini yaratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasiga doir darsliklar, uslubiy qo'llanmalarni ko'paytirish orqali mazkur yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini oshirish mumkin deb xisobladik.

Shu o'rinda, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar haqidagi ma'lumotlarni olish va undan foydalanishga huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ va muassasaning roziligi bilan yo'l qo'yilishiga oid tartib yoki huquqbuzarliklar sabab va sharoitlarining hisobi yuritiladigan markazlashtirilgan elektron bazadan foydalanishga doir maxsus dasturda tegishli ruxsatnomaga ega va maxfiy «parol»dan xabardor shaxslar tomonidan foydalanish tartibini ham nazarda tutish o'rindidir.

Jinsiy erkinlikka qarshi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil etish samaradorligini oshirish bo'yicha ilgari surilayotgan takliflar huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish imkoniyatini kengaytirishga, mexanizmini takomillashtirishga, fuqarolarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.